

GENDER TARBIYADA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA OILANING HAMKORLIGI

Komilova Soliha Mirsobitovna

Annotatsiya: *Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning gender tarbiyasini amalga oshirishda maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning vazifalari to'g'risida so'z borgan. Muallif mazkur sohada yurtimizda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilgan. Shu bilan bir qatorda, ta'lim va tarbiya maslasida bolaning psixo-fiziologik jihatlarini ham inobatga olish lozimligini ta'kidlab, masalani chuqur tahlil qilgan. Maqolada ota-onalarning gender tarbiya sohasidagi bilimlarini oshirishga qaratilgan takliflar ilgari surilgan.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim tashkiloti, ota-ona, oila, gender, identifikatsiya, yondashuv, tarbiya, seminar, induksiya, deduksiya, xususiyat.*

Аннотация: *В данной статье говорится о задачах организации дошкольного образования и семьи в осуществлении гендерного воспитания детей дошкольного возраста. Автор проанализировал принятые в нашей стране нормативные правовые документы в этой сфере. Кроме того, он подчеркнул необходимость учитывать психофизиологические аспекты ребенка в вопросах обучения и воспитания. В статье выдвигаются предложения, направленные на повышение знаний родителей в области гендерного образования.*

Ключевые слова: *организация дошкольного образования, родители, семья, пол, идентификация, подход, воспитание, семинар, индукция, дедукция, характеристика.*

Farzandga yaxshi tarbiya berish ota-onaning asosiy mas'uliyatli vazifalaridan biridir. Bu borada ular har qadamda mas'uliyat bilan yondashmog'i lozim. Kelajakdagi yo'li ravon bo'lishini istagan har bir ota-onalar sarflaydigan vaqtini va

harakatini ertaning buyuk insonlari bo'lgan farzandlarini ulg'aytirish uchun sarflashlari lozim. Farzand kamoloti uchun sarflangan har bir daqiqa ertangi farovon hayot uchun tamal toshi bo'ladi desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Agar ota-ona vaqtida farzandiga e'tibor qaratmasa, uning kelajagi uchun qayg'urmasa, keyinchalik afsus – nadomat bilan yashashi muqarrar. Bu kelajakda muammolarni yuzaga chiqarishi mumkin. O'sha vaqtda esa muammolarni hal qilishga kech bo'lishi mumkin. Shunday ekan, farzandining taqdiri uchun e'tiborli bo'lib, uning xulqi, tarbiyasiga va ilm olishiga befarq bo'lmaslik lozim.

Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bu maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga sifatli ta'lim va tarbiya berish, mazkur sohada maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning hamkorligini qo'llab-quvvatlashdan iboratdir. Shu munosabat bilan hukumatimiz tomonidan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni (2019), O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020), O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni (2008), Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti (2020) va boshqalar.

Bolalarning gender ijtimoiylashuv jarayonida ota-onalarning o'rni shubhasiz yuqori, chunki ular bolaning tashqi dunyo bilan aloqa qiladigan asosiy ijtimoiy muhitni tashkil qiladi. Oila – bu bolaning birinchi, eng yaqin dunyosi bo'lib, unga "erkak" va "ayol" haqida dastlabki g'oyalarni beradi, aynan oilada asosiy genderga oid dunyoqarash hosil bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, noqulay ijtimoiy muhit bolaning gender o'ziga xosligini rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

L.V. Gradusova ta'rifiga ko'ra "...gender – bu erkaklar va ayollarning ijtimoiy xulq-atvorini belgilaydigan madaniy va xulq-atvor xususiyatlarining o'ziga xos to'plami".

Psixologik lug'atda berilgan ta'rifga ko'ra, "gender – bu insonni erkak yoki ayol sifatida belgilaydigan biologik, xulq-atvor va ijtimoiy xususiyatlarning ontogenetik rivojlanayotgan majmuasi".

Gender, avvalo erkak va ayol, o'g'il va qiz bolalar munosabatlarining

ijtimoiy psixologik hamda pedagogik tomonlarini qamrab oladi. Bu tushuncha yangi ijtimoiy qarashlar va madaniyatga bog'liq holda rivojlanib boradi. Tarixdagi matriarxat yoki patriarxat tushunchalari ham bunga yaqqol misoldir. Ta'lim-tarbiya yo'nalishida gender tushunchasi faqat qizlarga taalluqli emas, chunki u o'z xususiyatiga ko'ra o'g'il va qiz bolalar orasidagi munosabatlarni tavsiflab ta'riflaydi, ya'ni, ijtimoiy rollar, faoliyat shakllarining bo'linganligi, xatti-harakat va individlarning psixologik xarakteristikalarida o'ziga xosliklar mavjudligini o'rganadi.

Gender identifikatsiyasi - o'zini ma'lum bir jins vakili sifatida ko'rish, unga mos keladigan xatti-harakatlar shakllarini o'zlashtirish va shaxsiy xususiyatlarni shakllantirish.

Genderning sotsiumdagi rollaridan kelib chiqadigan ijtimoiy tabaqalanish, va ayni paytda nutq, uslub, kiyim va xatti-harakatlarda namoyon bo'luvchi jihatlar ham bu yo'nalishning muhim sifatlarini tashkil etadi. Gender rollar erkaklar va ayollarning mehnati, vazifalariga doir qarashlarning bo'linishida ham namoyon bo'ladi. Psixologik rivojlanish va pedagogik qarashlarda sohalar mutaxassislari 'differensial ijtimoiylashuv' atamasidan gender rollarini o'rganish maqsadida foydalanmoqdalar.

Gender yondashuvi shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning elementi sifatida qaraladi, bu "bolaning jinsiga muvofiq individual xususiyatlarini" hisobga oladi. Shu sababli, ta'lim va tarbiya jarayonida gender yondashuvini samarali amalga oshirish uchun maktabgacha yoshdagi bolalar va boshlang'ich maktab o'quvchilarining gender identifikatorini shakllantirish xususiyatlarini hisobga olish va bilish kerak.

Xususan, *anatomik va fiziologik xususiyatlar*: qizlarda chap yarim sharning sohaları - mantiqiy fikrlash va nutq - oldinroq rivojlanadi. O'g'il bolalar miyaning oldingi qismlari nisbatan kechroq rivojlanadi. Mazkur soha ularning xatti-harakatlarini nazorat qilish uchun javobgardir.

Deduktiv va induktiv fikrlash: o'g'il bolalarda deduksiya usuli ustunlikka ega, shuning uchun ular testlarda yaxshi natijalarga erishadilar. Qiz bolalarda induktiv

fikrlash nisbatan yaxshiroq rivojlanadi va ularga amaliy ko'nikmalarni o'rgatish osonroq hisoblanadi.

Abstrakt va aniq fikrlash borasida tahlil qiladigan bo'lsak, o'g'il bolalar obyektlarni ko'rmasdan yoki ularni ushlamasdan ham hisoblash amallarini yaxshiroq bajaradilar. Obyektlar va rasmlar belgilar ko'rinishida haqiqiy hayotga aynanlashtirilganda, qiz bolalar yaxshiroq mulohaza yuritishadi.

Nutqdan foydalanish: qizlar o'rganilayotgan materialni gapirib, baland ovozda nimanidir takrorlab o'rganishni afzal ko'radilar; o'g'il bolalar – jimlikni hush ko'radilar.

Mantiq va dalillar: qizlar og'zaki nutqni yaxshiroq idrok etadilar, ular uchun materialni eslab qolish oson, o'g'il bolalar esa mantiqiy qoidalar yordamida eslab qolishadi.

Bolalarning *his-tuyg'ulari* ham har xil: o'g'il bolalar ko'proq asabiy va bezovta, qizlar ko'proq emotsional va his-tuyg'ularga beriluvchan bo'lishadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida, biz quyidagilarni ta'kidlashimiz mumkin:

Birinchidan, gender identifikatori ta'rifiga ikkita yondashuv mavjud: tor va keng ma'no.

Ikkinchidan, gender identifikatori-ma'lum bir jins bilan identifikatsiya qilish, o'ziga ma'lum bir jinsning vakili sifatida munosabatda bo'lish.

Uchinchidan, maktabgacha yoshdagi bolalar va maktab yoshidagi kichik o'quvchilarining jinsi o'ziga xosligini shakllantirish anatomik va fiziologik xususiyatlar, nutq, deduktiv va induktiv fikrlash, abstrakt va aniq fikrlash, nutq, mantiq va dalillardan foydalanish, hissiyotlarda namoyon bo'ladi.

To'rtinchidan, maktabgacha va maktab yoshidagi kichik o'quvchilar gender o'ziga xosligini shakllantirish jarayoni umumiy yo'nalishga ega, shuning uchun bu jarayonni amalga oshirishda uzluksizlikni ta'minlash kerak.

Masalan, 4-5 yoshdagi bolalarning gender ongining mazmuni juda cheklangan, ammo bu bolalarni tarbiyalash jarayoniga ularning jinsi xususiyatlarini hisobga olgan holda texnologiyalarni kiritish uchun yetarli. 4-5 yoshda bolaning o'z jinsini aniqlash tasavvurlari mustahkamlanadi. Aynan shu yoshda bola tashqi belgilarga

(kiyim, soch uzunligi va boshqalar) tayanib, ongli ravishda odamlarni jinsiga qarab ajrata boshlaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, gender ijtimoiylashuvi jarayonida maktabgacha yoshdagi o'g'il bolalar va qizlarning gender ta'limining mezonlariga gender tabaqalanishini shakllantirish (kichik maktabgacha yoshda); gender o'ziga xosligini shakllantirish; qizning (o'g'ilning) individualligini rivojlantirish kiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning jinsi, yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, biz gender ijtimoiylashuvi jarayonida o'rta maktabgacha yoshdagi bolalarning gender o'ziga xosligini rivojlantirishga qaratilgan gender ta'limining vazifalarini aniqlashimiz mumkin:

1. Tengdoshlar bilan o'yin va real munosabatlarda "erkak" va "ayol" xulq-atvori standartlari to'g'risidagi bilimlarni amalga oshirish uchun sharoit yaratish.
2. O'z sog'lig'iga, tanasiga (yoshga mos darajada), tozalik va tashqi ko'rinishga e'tibor qilishni tarbiyalash va bu ko'nikmalarni rivojlantirish.
3. O'zi bilan bir va qarama-qarshi jinsdagi kattalar hamda tengdoshlariga insonparvarlik munosabati asoslarini shakllantirish.

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarda gender ijtimoiylashuvi jarayonida:

✚ bolalarning o'z jinsi vakillari bilan o'zini aynan o'xshash deb bilish qobiliyati rivojlanadi;

✚ o'zining gender xulq-atvorini boshqalarning xulq-atvori bilan bog'lash qobiliyati, tengdoshlarining va o'zining bunday xulq-atvorini adekvat baholash;

✚ o'yinlarda, real o'zaro munosabatlarda erkaklar va ayollar xulq-atvorining standartlari haqidagi bilimlar kengayadi;

✚ o'z sog'ligi va tashqi ko'rinishiga g'amxo'rlik qilish ehtiyoji tarbiyalanadi;

✚ ayollar va erkaklarning faoliyat turlari, kasblari, erkak va ayollarga xos ichki hamda tashqi jihatlar haqidagi tasavvurlar shakllanadi;

✚ o'zi bilan bir va qarama-qarshi jinsdagi kattalar hamda tengdoshlariga va boshqalarga nisbatan insonparvarlik munosabati asoslari shakllanadi.

Britaniyalik Jun Stetem o'z farzandlarida “erkak” va “ayol” sifatlarini yangicha uyg'unlikda tarbiyalashga harakat qilgan oilalarda tadqiqot o'tkazgan. Ular o'g'il bolalar boshqalarning tuyg'ularini yaxshiroq his etishini, mehribonroq bo'lishini xohlar, ayni paytda qizlarda ta'lim olish va o'zo'zini takomillashtirish uchun imkoniyatlardan faol foydalanishni rag'batlantirardi. Barcha ota-onalar shakllangan gender ta'limiga qarshi turish murakkabligini tan olgan. Chunki bolalar ko'cha va maktabda an'anaviy qarashlarning ta'siriga tushib qolgan.

Bolalarni gender sohasidagi bilimlarini oshirishda albatta maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning hamkorligi muhimdir. Shu maqsadda maktabgacha ta'lim muassasalarida o'tkazilishi mumkin bo'lgan ota-onalarning gender madaniyatini oshirishga qaratilgan bir qator namunali tadbirlar tavsiya etamiz:

- ❖ "Oilada bolalarning gender tarbiyasi" seminari;
- ❖ "Maktabgacha yoshdagi bolaning er va xotin, ona va otaning kelajakdagi rollari haqidagi tasavvurlari" mavzusida seminar;
- ❖ "Bolalar bilan qiyin mavzularda suhbatlashish" mavzusidagi seminar-trening;
- ❖ "O'g'il bolalar va qizlar uchun aqlli kitoblar" mavzusida ota-onalar burchagini tashkil etish va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tasheva N. S. BOLANING IJTIMOIIY RIVOJLANISHIDA OILA INSTITUTINING AHAMIYATI //Analysis of world scientific views International Scientific Journal. – 2023. – T. 1. – №. 8. – C. 110-117.
2. Евтушенко, И.Н Особенности гендерного воспитания детей дошкольного возраста [Текст] / И.Н. Евтушенко, Е.Б. Быстрой, Б.А. Артеменко // Самарский научный вестник. – 2018. – Т. 7. – № 2. – С. 239-245.
3. Salimovna T. N. The Role of the Family in the Upbringing of Preschool

Children //JournalNX. – T. 7. – №. 12. – C. 323-326.

4. Tasheva N. S. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINI BOSHQARISHDA OTA-ONALARNING ISHTIROKI //Results of National Scientific Research International Journal. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 177-182.

5. Ташева Н. Профессиональная адаптация молодых педагогов в дошкольной образовательной организации //Общество и инновации. – 2024. – Т. 5. – №. 9/S. – C. 190-194.

6. O.R. Jamoldinova, D.K. Baxronova Gender: gender tengligi tushunchasi va siyosiy-ijtimoiy munosabatlar// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 7// 2022.